

MAKTABGACHA TA’LIM TASHKILOTLARI YOSH GURUHLARIDA VATAN TUYG‘USINI SHAKLLANTIRISH

Qadamboyeva Hilola Umid qizi-UrDPI

**Pedagogika fakulteti “Maktabgacha ta’lim metodikasi”
kafedrasi o‘qituvchisi**

Abdullayeva Rayxon Atanazarovna- UrDPI

**Pedagogika fakulteti “Maktabgacha ta’lim metodikasi”
kafedrasi o‘qituvchisi**

Bekchanova Feruza Marimbayevna

**Pedagogika fakulteti “Maktabgacha ta’lim metodikasi”
kafedrasi o‘qituvchisi**

Annotatsiya: Ushbu maqolada maktabgacha ta’lim tashkilotlari yosh guruhlari haqida, yosh guruhlarida vatan tuyg‘usini shakllantirish haqida, otabobolarimizning ona vatan tushunchasi haqidagi qarashlari, maktabgacha yoshdagи tarbiyalanuvchilarda ona vatanga muhabbat tuyg‘usini shakllantirish to‘g‘risida ma’lumotlar berilib o‘tilgan.

Kalit so‘zlar: vatan, vatanparvarlik, “Ona yurt”, ekskursiya, Sayyid Hasan Ardashev, Alisher Navoiy, kichik guruh, o‘rta guruh, kata guruh, tayyorlov guruh.

Bugungi kunda o‘zbek xalqining asrlar davomida shakllangan umuminsoniy ma’naviyatini va milliy qadriyatlarini tarbiyalanuvchilar ongiga singdirish, maktabgacha ta’lim tashkiloti tarbiyalanuvchilarni vatanparvar, barkamol inson qilib tarbiyalash muhim ahamiyat kasb etadi. Mamlakatimizda yosh avlodni Vatanga muhabbat ruhida tarbiyalash boshqa sohalardagi kabi maktabgacha ta’lim sohasining ham asosiy masalalaridan biri sifatida qaralmoqda. Chunki, maktabgacha ta’lim jamiyat hayotining muhim ajralmas qismi bo‘lib, u inson rivojlanishiga kuchli ta’sir ko‘rsatadi. Milliy Vatanparvarlik haqida so‘z borganda, bu o‘zbek xalqining qoniga singib ketgan iymon, insof, mehr-muhabbat, oqibat, shavqat, or-nomus, ona yurtiga, o‘z eliga sadoqat ahloqiy-ma’naviy qadriyatlar, g‘oyalar, qarashlar yig‘indisi tushuniladi. Maktabgacha ta’lim tashkilotlarida ham Vatanga muhabbat tuyg‘usini shakllantirish, tarbiyalanuvchilarni vatanparvarlik ruhida tarbiyalash ta’limning asosiy mazmunini tashkil etmoqda. Vatanparvarlik his-tuyg‘ularini shakllantirishda O‘zbekistonning davlat ramzlari bayroq, gerb, madhiya, o‘zbek tili, Konstitutsiya va boshqa shu millatga, shu zaminga xos, mos bo‘lgan tuyg‘ular, fazilatlar o‘tkazilayotgan madaniy-ma’rifiy faoliyatlarda o‘z aksini topmoqda. Yoshlarni vatanparvarlik ruhida tarbiyalash masalasi davlat darajasidagi

masalalardan bo‘lganligi bois, bunday maqsadlarga aniq rejalashtirilgan yo‘l xaritalarida belgilangan vazifalardan iborat ishlarni hayotga tatbiq etish orqali amalga oshirish maqsadga muvofiqdir. Vatanparvarlik mavzusida juda ko‘p allomalarimizning ijod namunalari-yu, bu haqdagi fikrlari bizgacha yetib kelgan. Amir Temur, Alisher Navoiy, Zaxiriddin Muhammad Bobur, Mirzo Ulug‘bek va boshqa ajdodlarimizning ijod namunalari hozirgi kungacha, ya’ni bizning zamonamizda ham o‘ziga xos o‘rin egallagan bo‘lib, tarbiyalanuvchilar tarbiyasida ibrat, namuna sifatida qo‘llanib kelinmoqda. Vatan tushunchasini har kim har xil ma’noda, o‘zining tushunish darajasida talqin qiladi. Vatan-bu insonning tug‘ilgan, kindik qoni to‘kilgan joy, bolalik, yoshlik davri o‘tadigan, ta’lim-tarbiya topadigan, o‘zga yurtlarga ketsa, hamisha sog‘inadigan makonidir. Vatanni sevish, uning ravnaqi yo‘lida xizmat qilish, uni yomon ko‘zlardan, qora kuchlardan himoya qilish, uning sha’nini himoya qilish - bularning barchasi siz-u bizning oldimizda turgan mas’uliyatli vazifalardandir. Vatan tushunchasini, uni sevish, ardoqlash, himoya qilish tuyg‘usi nafaqat insonda, balki hayvonot olamida ham kuzatish mumkin. Baliq suvga, hayvon o‘zining iniga, hasharot uyasiga intiladi. O‘sha tafakkur qilmaydigan jonzotlar ham, hasharotlar ham o‘zining uyini taniydi, uni quradi, unda jufti bilan yashab, naslini davom ettiradi, zarur paytda uni himoya qiladi. Shunday ekan, aql-u zakovat, tafakkur ato etilgan, borliqdagi mavjudotlarning gultoji bo‘lgan insonda esa bu tuyg‘u yuksak darajada rivojlangan bo‘lishi lozim. Shiddat bilan rivojlanib borayotgan davrda mamlakatimizda amalga oshirilayotgan ishlar ko‘lami kundan-kunga kengayib bormoqda. Davlatimiz rahbarining sayi-harakatlari, tashabbuslari bilan yurtimiz hayotida misli ko‘rilmagan darajadagi taraqqiyotning pog‘onalarini ko‘rib guvohi bo‘lib turibmiz. Insonlarning tinch, hotirjam yashashi, ularning manfaatlarini himoya qilish, yurtimizni jahon arenasiga chiqarish, obro‘yini ko‘tarish, Prezidentimizning ta’birlari bilan aytganda, -“xalqni rozi qilish” yo‘lida qilinayotgan barcha ishlar, islohotlar jamiyatimiz taraqqiyotida muhim strategik masala sifatida qaralmoqda. Bunday ulug‘ ishlarni amalga oshirishda vatanparvarlik tuyg‘usi kuchli insonlarning fidoiyligi muhim ahamiyat kasb etadi.

“Vatan” - arabcha so‘zdan olingan bo‘lib, - “Ona yurt” degan ma’noni anglatadi. Vatan insonning kindik qoni to‘kilgan, avlod va ajdodlari tug‘ilgan joyi, ijtimoiy muhiti va inson, uning hayoti va ma’naviy tushunchalarni anglatadi. - Vatanparvarlik - deganda Vatanga sadoqat, unga xizmat qilish, yurt tinchligini asrash, Vatan ravnaqi uchun faol bo‘lishga undaydigan ma’naviy - axloqiy fazilatlar tushuniladi. Vatanparvarlik - ota-bobolarimizdan meros qolgan zaminni sevish, yurtning o‘tmishi va kelajagi, xalq urf-odatlarini, kuy-qo‘shiqlarini, qadriyatlarini asrash va rivojlantirish demakdir. Yoshlar tarbiyasi masalasi davlatimiz siyosatining

hozirgi kunda eng muhim strategik vazifalaridandir. Tarbiyalanuvchilarni tarbiyalash va ularning shaxsini har tomonlama kamol toptirish barcha mакtabgacha ta'lim tashkilotlari zimmasiga yuklatilgan. Bu vazifalar tarbiyalanuvchilarda barcha qobiliyatni o'sishiga, ijodiy intilishni vujudga keltirishda asosiy omil bo'lib hisoblanadi. Ilg'or g'oyalarni davrimizda ro'y berayotgan o'zgarishlarni, shuningdek, tarixiy mavzularni zamонавиу руҳда тушунтириш макtabgacha ta'lim tashkiloti tarbiyalanuvchilarida g'oyaviy e'tiqodni ma'naviy dunyoqarashni tarbiyalash uchun boy manba bo'lib hisoblanadi. Shundagina yosh avlod ruhiga his-hayajonli ta'sir ko'rsatadigan ularda mardlik, jasurlikni, tashabbuskorlikni tarbiyalaydigan mustahkam milliy tarbiya tizimi tarkib topadi. Vatanparvarlik tushunchasi ko'pincha harbiy faoliyatga nisbatan ishlataladi. Ammo, biz bu tuyg'uni faqat harbiylarga nisbatan ishlatsak, biz vatanparvarlikning tor ma'noda qo'llagan bo'lamic. Vatanparvarlikni barcha faoliyat doirasida ko'rish maqsadga muvofiqdir.

Vatan tushunchasi keng va tor ma'nolarda qo'llash mumkin. Keng ma'nodagi tushunchasi: Vatan - bir xalq vakillari hamjihat yashab turgan, ularning ajdodlari azal-azaldan iqtiqomat qilgan, hudud nazarda tutilsa, tor ma'nodagisi esa kishi tug'ulib o'sgan uy, mahalla, qishloq nazarda tutiladi. O'zbeklarda falonchi vatanli bo'ldi, deyilganda o'sha odam uy-joyli, boshpanali bo'ldi degan ma'no ham shu nuqtai nazardan aytilgan bo'lsa kerak. Alisher Navoiy ijodida Vatan tushunchasi keng ma'nolarda qo'llanilgan. Bir ta'rifida Vatan so'zini geografik ma'noda, ya'ni, tug'ilib, o'sib-ulg'aygan joy mazmunida tadbiq etgan. Masalan, shoir ustodi Sayyid Hasan Ardasherga yozgan she'riy maktubida:

"Ki bo'lmoq vatan ichra dushvor edi,

Ko'ngulga jafo daf'i ozor edi,"

- derkan, ona shahri Hirotni e'tiborga olgan. Ustod Maqsud Shayxzoda aytganidek, Navoiy "Hatto Xuroson saltanatining yiroq viloyatlariga borganda ham o'zini "g'urbatda" his etgan", degan qarashlar mayjud.

Vatanga muhabbat hissi maktabgacha yoshidagi bolalarda kattalar tomonidan bolalarning ruhiy taraqqiyotini va ular tafakkurining aniq va obrazliligini e'tiborga olgan holda ma'lum izchillik bilan tarbiyalab boriladi. Shuning uchun bu yoshdagi bolalarda vatanga muhabbat hissini ularga yaqin va tanish bo'lgan aniq faktlar, yorqin misollar orqali tarbiyalab boriladi. Tarbiyachilar bolalarda o'z oilasiga, uyiga, bolalar bog'chasiga va bolalarni o'rab turgan tevarak atrofga mehr muhabbatni va ularga sodiq bo'lishni tarbiyalayotib, eng muhim ijtimoiy his bo'lgan vatanga muhabbatni tarbiyalab boradi.

Kichik yoshdagi (3-4-yosh) bolalar tevarak – atrofdagi voqeа, hodisalarning faqat tashqi belgilarini anglab oladilar. Ular Hayit, Navro'z bayramini hamma

kishilar shodiyonalik, bilan kutib olishlarini ko‘radilar, bundan juda zavqlanadilar, ammo buning sabablari, natijalari bilan qiziqmaydilar. Ammo bu yoshdagi bolalar tevarak –atrofdagi kishilar mehnati, ularning bolalarga ko‘rsatayotgan g‘amxo‘rliklari bilan kattalar tanishtirib borsalar, aniq misollar orqali tushuntirsalar, ayni muddao bo‘ladi. Kichik guruhda vatanga muhabbat hissi o‘z uyiga, bog‘chasiga, tarbiyachiga muhabbatni tarbiyalashdan boshlanadi. Bolalar ota – onalari va pedagoglar ularga qanday g‘amxo‘rlik qilayotganini ko‘radilar va his etadilar, natijada bolalarda ularga bo‘lgan muhabbat yanada ortadi, ularning g‘amxo‘rligi va himoyasiga ishonch hosil qiladilar.

O‘rta guruh (4-5 yosh) bolalari ijtimoiy hayot voqealari bo‘lgan kattalarning qishloq xo‘jaligidagi, fabrikadagi, zavoddagi mehnatini, ular ko‘pchilik manfaatini ko‘zlab ishlayotganligi, shahar va qishloqlarni obod qilayotganligi, maishiy va uy – joy binolarini qurayotganligini tushunadigan bo‘lib qoladilar. O‘rta guruhda bolalar endi kengroq doiradagi kishilar bilan munosabatda bo‘la boshlaydilar. Ular ota – onalari va tarbiyachilardan o‘z shahri, qishlog‘i to‘g‘risida ko‘p narsani bilib oladilar.

Katta (5-6 yosh) va tayyorlov (6-7 yosh) guruhi bolalari esa bizning davlatimizda har xil millat vakillari birga yashaydi degan haqiqatni ham tushunib oladilar. Bu yoshdagi bolalarga uyda onalariga, buvilariga va bobolariga yordam berish topshiriladi. Butun guruh bolalari bilan ular oilada kattalarga qanday yordam bergenliklari to‘g‘risida suhbatlashiladi. Onaga hurmat va muhabbatni tarbiyalashda 8-mart bayramini uyushtirish yaxshi yordam beradi. Bu kuni bolalar va tarbiyachilar she’rlar o‘qiydilar, ashulalar ijro qilishadi, onalari haqida hikoya qilib berishadi. Bayramga tayyorgarlik davrida onalari, ularning mehnati, oiladagi g‘amxo‘rliги haqida suhbat o‘tkaziladi. “Onamga sovg‘a” rasmi ko‘riladi, ona va buvilarga sovg‘alar tayyorlanadi. Tarbiyachi ota – onalarga muhabbatni tarbiyalashda badiiy adabiyotdan ham keng foydalanadi. Katta va tayyorlov guruhidagi bolalar bilan olib boriladigan suhbatlarda ona mehnat qilib, faqat o‘z oilasigagina emas, jamiyat uchun ham foyda keltirish ta’kidlanadi. Maktab temir yo‘l stansiyasi, tikuvchilik ustaxonasi, pochta, kutubxonaga ekskursiyalar uyushtiriladi. Ekskursiyalarda onalarning qanday ishlayotganlari ko‘rsatiladi. Ekskursiyadan keyin “Onalar qanday ishlaydilar” degan mavzuda suhbat o‘tkaziladi. Oilaga, bog‘chaga, yaqin kishilarga mehr – muhabbat hissi asta – sekin kengayib, bolalarning tug‘ilgan shahri, qishlog‘i, jonajon tabiatga bo‘lgan mehri bilan qo‘silib ketadi va murakkablashib boradi. Tarbiyachi bolalarga jonajon shahar, qishloqdagi eng chiroyli ko‘chalarni, maydonlarni, binolarni, bog‘larni ko‘rsatadi. Ko‘chalar, maydonlar, hiyobonlarning nomi shahar yoki qishloqning holatini, xalqning o‘tmishini anglatishini tushuntiradi.

Bu nomlar buyuk olimlar, sarkardalar, yozuvchilar, xalq e'zozlagan boshqa kishilar sharafiga qo'yilganini tushuntiradi. Kichik guruhdan boshlab bolalarda jonajon o'lka tabiatiga muhabbat uyg'otishi, uning go'zalligini his etish lozim. Buning uchun u bolalar bilan bog'larga, polizga, issiqxonalarga, paxta dalasiga, gulzorga, daryoga, pillaxonalarga, tovuqxona, fermalarga sayr – ekskursiyalar uyuştiradi. Tarbiyachi "Vatan", "Bizning shahar", "O'zbekistonning poytaxti – Toshkent", "Qishlog'imizning eng yaxshi kishilari", "shahrimizning eng yaxshi kishilari" va shunga o'xhash mavzular bo'yicha kitob va rasmlar tanlaydi, turli albomlar, papkalar tayyorlab, bolalar bilan olib boradigan ta'lim – tarbiyaviy ishida foydalanadi. Har bir davrda yuz beradigan voqeа-hodisalar bolalarga bevosita va bilvosita ta'sir etadi. Bunday voqeа – hodisalar to'g'risida tarbiyachining bolalarga mohirona hikoya qilib berishi vatanparvarlikni tarbiyalashda muhim vosita bo'lib xizmat qiladi.

Barcha guruhlardagi vazifa kishilarga bo'lgan muhabbat va mehribonlik tuyg'ularini ancha anglangan va ta'sirchan qilishdan iboratdir. Shu maqsadda tarbiyachi suhbatlardan, badiiy adabiyotlardan foydalanadi, rasmlar ko'rsatadi, ekskursiyalar uyuştiradi. Bolaning o'ziga xos xususiyatini e'tiborga olish, uning axloqiy tasavvurlari bilan konkret xatti – harakati o'rtaida qarama – qarshilik bo'lishi mumkinligini nazarda tutib, kishilarga nisbatan chinakam muhabbatni tarbiyalash uchun ularga yordam berish istagini (dasturxon yozib, stol tuzash, idish –tovoqlarni yuvishga yordam berish va shunga o'xshashlar) uyg'otishga alohida e'tibor berish kerak.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Mirziyoyev Sh.M. "Erkin va farovon, demokratik O'zbekiston davlatini mard va olajanob xalqimiz bilan birga quramiz" mavzusidagi O'zbekiston Respublikasi Prezidenti lavozimiga kirishish tantanali marosimiga bag'ishlangan Oliy Majlis palatalarining qo'shma majlisidagi nutqi. – T.: "O'zbekiston", 2016..
2. Sh.M.Mirziyoyev "Insonparvarlik, ezgulik va bunyodkorlik – ma'naviy g'oyamizning poydevoridir" – "Tasvir" nashriyoti Toshkent – 2021-y
3. Inomova M. Oilada bolalarni ma'naviy - axloqiy tarbiyalashda milliy qadriyatlar. – T.: Fan, 2012 y
4. Fotima Qodirova, Shoista Toshpo'latova, Nargiza Qayumova, Malohat A'zamova "Maktabgacha Pedagogika". Tosh."Tafakkur". 2019 y.
5. Inomova M. "Oilada bolalarni ma'naviy-axloqiy tarbiyalashda milliy qadriyatlar" - T.: Fan, 2012.